

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG SHE'RIYATIDA HAYOT
FALSAFASI VA RUHIY YENGILLIK (“QUVONCHNI HAM,QAYG'UNI HAM
QO'Y” SHE'RI TAHLILI)**

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg(1939-2009)- o'zbek adabiyotida o'zining chuqur falsafiy mazmunga ega,lirik samimiy asarlari orqali alohida o'rin tutgan buyuk iste'dod sohibi,shoir,yozuvchi,dramaturg,tarjimon sanaladi.Uning she'riyatida hayot mazmun-mohiyati,muhabbat,sadoqat,vaqt,o'tkinchilik,kechirim kabi mavzular asosiy o'rinda turadi.Faynbergning qalamiga mansub “Quvonchni ham,qayg'uni ham qo'y” she'ri shoirning hayotga,inson ruhiyatiga,o'tkinchi dunyoga bo'lgan falsafiy qarashlarining badiiy ifodasi desak, aslo adashmaymiz.Bu asarda ijodkor hayotning o'tkinchi ekanligini,insondagi ruhiy yengillikka intilishni,dunyo hasratlaridan voz kechish kerak ekanligini falsafiy jihatdan yoritib beradi.Ushbu maqola mazkur she'r tahliliga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: falsafiy yondashuv,tozalik,ruhiy soddalik,ichki ozodlik,dunyoviy shon-shuhrat.

Quvonchni ham,qayg'uni ham qo'y,

Ortingga bir qarama- o'tgin.

Neki bo'lgan bo'sa-unutgin,

Xayolingdan ro'yolarni suy.

She'ning ilk bandidan shoir insonni ortga qarashdan, o'tmishda bo'lib o'tgan barcha yaxshi-yu yomon xotiralarni eslashdan tiyilishga undaydi. She'rni o'qir ekanmiz, unda hayotga bo'lgan falsafiy qarashlar ustuvorroq ekanligini anglaymiz. Faynbergning fikriga ko'ra o'tmishni qumsash unda o'zining ruhiy ozodligini yo'qotishga sabab bo'ladi. U insonni o'tgan quvonch va qayg'udan qutulishga chorlayotgani, aslida hozir yashayotgan onlarni qadrlashga, ruhiy poklanishga chaqiriqdir. "Ro'yolarni suy" degan jumla esa orzularni, kelajakni sevishga undaydi.

Achinmagin o'tar shuhratga,
Kuzgi titroq kezgan o'rmonda
Ko'mma berib savol har onda
Bu maysalar, toshni hasratga.

Bu bandda dunyodagi moddiy boyliklar, shon-shuhrat o'tkinchi ekanligi haqida so'z ketadi va bu hislarning barchasi tabiatga uyg'un tarzda ifodalanadi. "Kuzgi titroq" o'tkinchilik ramzi. "Shuhrat" vaqtichalik, "maysa va tosh" tabiat abadiyligini bildiradi. Bundan kelib chiqadiki, shoir o'quvchilarga inson o'zini tabiat izmiga tashlashi kerakligini, undan nima kelsa ham, tabiiy ravishda qabul qilish lozimligini tushuntiradi. "kuz", "maysa", "yel" kabi tabiat obrazlari shoirning hayot falsafasini ko'rsatadi: hayot o'tadi ammo ruh abadiydir.

Yovshan isli yellarni simir,
Yodingda tut gar shoir bo'lsang-
Bu dunyoda nima bor bo'lsa,
U dunyoda bo'lmaydi axir.

She'ning so'nggi bandida shoir bu dunyo va u dunyo o'rtasidagi tafovut haqida so'zlaydi. Mana shu nuqta o'zida eng chuqur falsafiy mulohazani mujassamlashtiradi. U bu yerda insonni dunyoviy shon-shuhratga, mol-u dunyoga, quvonch-u tashvishga bog'lamaslikka, balki ruhiy soddalik, ichki sokinlikka intilishga da'vat etadi. "Yovshan isli

yel''-hayotning achchiq, ammo tabiiy nafasi ramzi bo'lib, shoirning hayotdagi achchiq-u chuchukni birday qabul qiling degan fikriga ishoradir.

Xulosa qilib aytganda, «Quvonchni ham, qayg'uni ham qo'y» she'ri zamirida chuqur falsafiy ma'no yotibdi. She'r o'quvchilarga hayot mazmuni, ruhiy soddalik, samimiylik haqida keng qarashga yordam beradi. Eng muhimi she'rni o'qigan kitobxon moddiy dunyo o'tkinchiligini, ruhiy dunyo abadiy ekanligini anglaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Faynberg A.A Tanlangan asarlar.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
2. Rahmonov, S. XX asr o'zbek adabiyoti jarayoni.- Toshkent: Universiteti, 2010.
3. Qosimov, B. Adabiyotshunoslik asoslari.- Toshkent: O'qituvchi, 2002.
4. Ziyouz.com kutubxonasi www.ziyouz.com